
YOZGI OROMGOHNING OCHILISH MAROSIMI BO'LIB O'TDI

Bolalarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil yetish, ularning oromgohlarda dam olishi va bilim orttirishi uchun Rishton tumanida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Rishton tumanining "Qo'rg'oncha" mahallasida joylashgan, "Avtomobilchi" bolalar dam olish oromgohi 2022 yilning boshida tuman hokimligi tomonidan to'liq qayta ta'mirlanib 150 o'rinli zamonaviy tipdagi oromgohga aylandi. "Avtomobilchi" nomi bilan atalgan, shinam va ko'rkam ko'rinish olgan bu oromgohda bugun ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Hozir oromgohda 135 nafar bolajonlar hordiq chiqarishayapti. Ushbu oromgohining ochilish marosimida tuman hokimi, sektor rahbarlari, tuman Xalq ta'limi bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi va oromgohga aloqador boshqa tashkilotlar vakillari va ota-onalar ishtirok etishdi. Oromgohning birinchi boskichida dam olayotgan bolalar oromgohga tashrif buyurgan mehmonlarni ko'tarinki kayfiyat, o'zlarining ijod namunalari, raqs va qo'shiqlari bilan kutib olishdi. Oromgohga tashrif buyurgan mehmonlar qayta ta'mirlangan bolalar oromgoxi yotoqxonalarini, oshxona, tibbiyot, ma'naviyat va ma'rifat xonasi va boshqa ob'ektlari bilan tanishdilar. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda tuman hokimi so'z olib, mamlakatimizda yosh avlodning har jihatdan yetuk, barkamol voyaga yetishlarini ta'minlash, xususan, bolalarini sog'lomlashtirish, yozgi ta'tilni mazmunli o'tishini tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlandi. Ushbu oromgohda bolalar turli fan to'garaklariga qatnashish bilan birgalikda, musiqa, sport va bilim bellashuvlarida ham ishtirok etishadi. Ayniqsa chet tili to'garaklari mashg'ulotlarini malakali mutaxassis va o'qituvchilar tomonidan olib borilishi ta'minlangan.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-17 13:37:17